



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI | 12 |
| Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li | |
| O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH | 16 |
| Shermuxamedov Akmal Komiljonovich | |
| РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА | 21 |
| Салимова Зиёда Рустамжон қизи | |
| ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH | 27 |
| Xojmurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li | |
| RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH | 32 |
| Azlarova Aziza Axrorovna | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 36 |
| Soyibova Matluba Ahmedboyevna | |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI | 41 |
| M.O. Yo'ldoshova | |
| NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH | 45 |
| Anvar Deberdiyev | |
| SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI | 49 |
| Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich | |
| STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR | 55 |
| Ishimova Mohinur Absalomovna | |



STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG‘BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDiy IMKONIYATLAR



Ishimova Mohinur Absalomovna

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi
Moliya-iqtisod sho‘basi buxgalteri
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0001-1897-5178

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi global venchur kapital inqirozi sharoitida innovatsion ekotizimlarni soliq mexanizmi vositasida rag‘batlantirish jarayonlarini tadqiq etishdan iborat. OECD (2025/2026) ma‘lumotlari tahlili asosida hududiy startaplarning “yashovchanlik paradoksi” va yirik akvitsiyalarning innovatsiyalarga salbiy ta‘siri (patentlash faolligining 60% ga kamayishi) isbotlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida startaplarning o‘shish sur‘atiga bog‘langan soliq stavkalari va yashil loyihalar uchun taqdim etilgan uzoq muddatli soliq imtiyozlari tizimi tadqiq etilib, natijalar olingan. Muallif yondashuvi asosida O‘zbekistonning IT-Park rezidentlari uchun amaldagi maxsus soliq rejimini hududiy va texnologik xususiyatlardan kelib chiqib takomillashtirish bo‘yicha amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Startap ekotizimi, venchur moliyalashtirish, soliq mexanizmlari, “yashovchanlik paradoksi”, akvitsiya (sotib olish), “Killer Acquisitions” (qotil xaridlar), patent faolligi, yashil iqtisodiyot (cleantech), IT-Park, o‘lim vodiysi, hududiy innovatsiyalar, “scaling-up” (o‘shish sur‘ati), investitsion soliq chegirmalari.

Abstract. The aim of this study is to examine the processes of stimulating innovative ecosystems through tax mechanisms in the context of a global venture capital crisis. Based on OECD (2025/2026) data analysis, the “survivability paradox” of regional startups and the negative impact of large-scale acquisitions on innovation (a 60% decline in patenting activity) are demonstrated. As a scientific contribution, the study investigates growth-linked tax rates for startups and long-term tax incentives for green projects. Based on the author’s approach, practical recommendations are developed for improving the special tax regime for IT-Park residents in Uzbekistan, taking into account regional and technological characteristics.

Key words: Startup ecosystem, venture financing, tax mechanisms, “survivability paradox”, acquisition, “Killer Acquisitions”, patent activity, green economy (cleantech), IT-Park, “valley of death”, regional innovation, scaling-up, investment tax incentives.

Аннотация. Цель данного исследования заключается в изучении процессов стимулирования инновационных экосистем посредством налоговых механизмов в условиях глобального венчурного кризиса. На основе анализа данных OECD (2025/2026) доказаны «парадокс выживаемости» региональных стартапов и негативное влияние крупных аквизиционных сделок на инновации (снижение патентной активности на 60%). В качестве научной новизны исследованы налоговые ставки, зависящие от темпов роста стартапов, а также система долгосрочных налоговых льгот для зелёных проектов. На основе авторского подхода сформулированы практические рекомендации по совершенствованию специального налогового режима для резидентов IT-Park Узбекистана с учётом региональных и технологических особенностей.

Ключевые слова: Стартап-экосистема, венчурное финансирование, налоговые механизмы, «парадокс выживаемости», аквизиция, «Killer Acquisitions», патентная активность, зелёная экономика (cleantech), IT-Park, «долина смерти», региональные инновации, scaling-up, инвестиционные налоговые льготы.



KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti chuqur texnologik va tizimli o'zgarishlar bosqichida turibdi. Xususan, dunyoning 140 dan ortiq davlatlari 2050-yilgacha "net-zero" (nol emissiya) ko'rsatkichiga erishishni strategik maqsad sifatida belgilagan [6]. Ushbu global transformatsiyalar sharoitida "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab olingan. Jumladan, strategiyaning 12-maqsadi sifatida yuqori texnologik va innovatsion mahsulotlar ulushini 1,5 barobarga oshirish hamda 17-maqsad doirasida raqamli xizmatlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan [2]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu strategik marralarga erishish uchun zarur bo'lgan texnologik yechimlarning qariyb 35 foizi hozirda faqat prototip yoki laboratoriya namunasi bosqichida ekanligi innovatsion startaplarning iqtisodiy drayver sifatidagi rolini yanada dolzarblashtirmoqda [9].

Startaplar an'anaviy korxonalaridan farqli ravishda yuqori risk darajasi va qisqa muddatda keskin o'sish (scalability) salohiyati bilan ajralib turadi. "O'zbekiston-2030" strategiyasida qayd etilganidek, tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha fiskal imtiyozlar yaratish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash orqali mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilgan [2]. Mazkur ko'rsatkichga erishishda aynan texnologik startaplar tomonidan yaratiladigan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi [3].

Biroq startap loyihalarining g'oya bosqichidan sanoat miqyosiga chiqishi uchun o'tishi kerak bo'lgan "o'lim vodiysi" (death valley) bosqichi murakkab moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini talab etadi. Ushbu nozik pallada venchur moliyalashtirish instrumentlari va davlatning stimullashtiruvchi soliq-byudjet choralari o'rtasida tizimli sinergiya hosil qilinishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion faoliyatning uzviyligini ta'minlashda va mahalliy loyihalarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion ekotizimlarni shakllantirishda J. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan "ijodiy vayronagarchilik" nazariyasi [4] va WIPOning global innovatsion tendensiyalari [9] fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi tadqiqotlar, xususan, A. Dechezlepretre va P. Kelly [6] shuni ko'rsatadiki, yashil (cleantech) startaplarning venchur kapitalini jalb qilish ehtimoli 8,5 foiz yuqoriligini, biroq ularning kapital talabligi investitsiya muddatini 6,3 foizga uzaytirishini isbotlagan. Bu esa ushbu sektor uchun soliq imtiyozlari muddatini uzaytirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

S. Howell [5] davlat grantlari xususiy investorlar uchun "sifat belgisi" (crowding-in effect) vazifasini o'tashini ta'kidlasa, M. Berger va boshqalar [7] yirik kompaniyalar tomonidan startaplarning sotib olinishi innovatsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tahlil qilganlar. Ularning xulosasiga ko'ra, yirik korporatsiyalar raqobatni cheklash maqsadida istiqbolli loyihalarni o'z tasarrufiga o'tkazishi ("Killer Acquisitions") oqibatida patentlash faolligi sezilarli darajada pasayadi. Hududiy innovatsiyalar kesimida R. Barrela va boshqalar [8] "Gelbach dekompozitsiyasi" usuli orqali qishloq startaplarning yashovchanligi (55%) shaharnikidan yuqori ekanligini hamda bunda soliq imtiyozlarining o'rni katta ekanligini aniqlaganlar. Shuningdek, mahalliy olimlardan G. Abduraxmanova raqamli iqtisodiyotda startaplar va venchur moliyalashtirishning institutsional asoslarini tadqiq etgan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalarining rasmiyligi, shuningdek, sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy jihatdan tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umum-iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda startap ekotizimi, venchur moliyalashtirish va davlatning soliq mexanizmlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish maqsadida global va milliy ko'rsatkichlar o'rganib chiqildi [9]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati nafaqat moliyaviy resurslarga, balki tizimli "sinergiya" effektiga ham bog'liq.

Venchur investorlar yuqori xavf (risk) ostida investitsiya kiritadi. OECD davlatlari tajribasi (Working Paper 2025/13) [6] shuni ko'rsatadiki, soliq mexanizmi orqali investorlarga beriladigan imtiyozlar loyihalarning kapital hajmini oshiradi (1-jadval).



1-jadval. Soliq mexanizmlarining startaplar yashovchanligiga ta'siri (OECD tahlili asosida) [8]

| Soliq vositasi | Qishloq (Rural) startaplari | Shahar (Urban) startaplari | Mexanizmnig ishlash mantig'i |
|-----------------------------|-----------------------------|----------------------------|----------------------------------|
| Akseleratsiya subsidiyalari | 15% yuqori samara | O'rtacha samara | Operatsion xarajatlarni qoplash |
| Daromad solig'i imtiyozi | 55% yashovchanlik | 43% yashovchanlik | «O'lim vodiysi»dan o'tish |
| Investitsion chegirmalar | Yuqori | O'rtacha | Yangi texnologiyalar sotib olish |

Manba: OECD Regional Development Papers (2025) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.[8]

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar startap ekotizimining barqarorligi bevosita davlatning moliya-soliq siyosatiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Bu yerda soliq mexanizmi shunchaki imtiyoz emas, balki "xatar va mukofot" (risk and reward) muvozanatini tartibga soluvchi instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, akseleratsiya subsidiyalari (soliq chegirmalari shaklida) qishloq startaplari uchun shahardagiga nisbatan 15 foiz yuqori samaradorlik bermoqda. Bu mexanizmnig ishlash mantig'i shundan iboratki, qishloq hududlarida infratuzilma va logistika xarajatlari yuqori bo'lgani sababli, soliq yukining kamaytirilishi startaplarning operatsion rentabelligini tezroq tiklashiga yordam beradi. Ya'ni, soliq mexanizmi bu yerda hududiy innovatsion passivlikni kompensatsiya qiluvchi drayver vazifasini bajaradi.

Startaplarning 5 yillik yashovchanlik darajasi daromad solig'i imtiyozlari qo'llanilganda qishloq hududlarida 55 foizni, shahar sharoitida esa 43 foizni tashkil etmoqda. Soliq mexanizmnig bu qismidagi mantiq shundan iboratki, startapning dastlabki yillarda olgan oz miqdordagi foydasi soliqqa tortilmay, uni takroriy investitsiyaga (re-investment) yo'naltirish imkoniyati yaratiladi.

Startap daromad solig'idan tejalgan mablag'ni ilmiy-tadqiqot (R&D) xarajatlariga yo'naltiradi, bu esa o'z navbatida patent faolligini oshiradi. Natijada, soliq imtiyozi startapning "bozordan chiqib ketish" xavfini kamaytirib, uning kapitallashuvini ta'minlaydi.

Jadvalning uchinchi bandida ko'rsatilgan investitsion chegirmalar mexanizmi startaplarning yangi texnologiyalarni sotib olishini rag'batlantiradi. Qishloq hududlarida ushbu ko'rsatkichning "yuqori" ekanligi soliq imtiyozlari orqali texnologik uskunar sotib olish xarajatlarining bir qismini soliq bazasidan chegirib tashlash imkoniyati startaplarning texnologik qurollanish darajasini oshirishini anglatadi.

Global tajriba (OECD) bilan bir qatorda, O'zbekistonda startap ekotizimini soliq mexanizmlari orqali rag'batlantirishning o'ziga xos modeli shakllangan. Xususan, IT-Park rezidentlari uchun joriy etilgan maxsus soliq rejimi OECD mamlakatlaridagi "innovatsion qutilar" (IP-box) modeliga o'xshash bo'lsa-da, u yanada kengroq imtiyozlarni nazarda tutadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston soliq tizimi va startaplar uchun imtiyozlar (IT-Park misolida) [1, 2]


| Soliq turi | Umumiy stavka | Startaplar (IT-Park) | Iqtisodiy samarasi |
|---|---------------|----------------------|---|
| Daromad solig'i | 12% | 0% | Reinvestitsiya hajmini oshiradi |
| Ijtimoiy soliq | 12% | 1% | Yuqori malakali kadrlar xarajatini kamaytiradi |
| Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 12% | 7,5% | Mutaxassislar real daromadini oshiradi |
| QQS (Import xizmatlar) | 12% | Ozod qilingan | Texnologik uskuna va dasturiy ta'minot xarajatini pasaytiradi |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va IT-Park rezidentlari uchun belgilangan imtiyozlar asosida muallif ishlanmasi. [1,2]

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning startaplar uchun mo'ljallangan soliq rejimi korxonalarining operatsion xarajatlarini keskin kamaytirish orqali ularning global raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Xususan, daromad solig'ining 0 foizga tushirilishi va ijtimoiy soliqning 12 foizdan 1 foizgacha kamaytirilishi startaplarga o'z mablag'larini "ichki venchur kapitali" sifatida shakllantirish hamda ularni ilmiy-tadqiqot (R&D) ishlariga qayta yo'naltirish imkonini beradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShODS) stavkasining 7,5 foiz etib belgilanishi esa intellektual mehnat egalarining real daromadini oshirib, mamlakatda "miyalarning oqib ketishi" (brain drain) jarayonini to'xtatishda muhim fiskal drayver vazifasini bajaradi. Bunday imtiyozlar tizimi startaplarning "o'lim vodiysi" bosqichidagi moliyaviy barqarorligini ta'minlab, 2024-yilda texnologik eksport hajmining 3 barobar o'sishiga bevosita zamin yaratdi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu fiskal drayverlar natijasida 2024-yil yakuniga ko'ra O'zbekistonda texnologik xizmatlar eksporti 1 milliard dollardan oshdi (2023-yilga nisbatan 3 barobar o'sish) [1]. Bu OECD mamlakatlaridagi tajriba kabi soliq imtiyozlari startaplarni nafaqat "o'lim vodiysi"dan chiqarishga, balki ularning xalqaro bozorda "scaling-up" (kengayish) sur'atini keskin oshirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm: Global startap akvitsiyalari va an'anaviy firmalar sotib olinishining qiyosiy dinamikasi (2010=100).

Manba: OECD (2025) [7] va WIPO (2024)[9] ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Diagrammadagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2010–2021-yillarda startaplar akvitsiyasi 4,8 barobar o'sgan bo'lsa, an'anaviy sektorda bu ko'rsatkich atigi 50 foizni tashkil etgan. Bunday o'sish korporatsiyalarning soliq optimallashtirish maqsadida venchur loyihalarni soliq kreditlari bilan birga sotib olishga intilishi bilan izohlanadi [7]. Biroq 2022–2024-yillarda bitimlar sonining 310 birlikkacha pasayishi fiskal nazorat kuchayganidan dalolat beradi. OECD tahlillari akvitsiyadan so'ng patentlash faolligining 60 foizga tushib ketishini ("Killer Acquisitions") ko'rsatib, soliq imtiyozlarini innovatsiyalarni bozorga chiqarish sharti bilan berish zarurligini ilmiy asoslaydi [7]. Shu bilan birga, hududiy tahlillar qishloq startaplari uchun "yashovchanlik paradoksi" xosligini va ularning barqarorligi shahar markazlaridagiga nisbatan yuqoriroq ekanligini isbotlaydi [8].

Yirik korporatsiyalar startaplarni sotib olayotganda soliq optimallashtirishdan foydalanadi. Biroq OECDning 2025-yildagi 10-sonli ishchi hujjati (Working Paper No. 10) [7] kutilmagan natijani ochib bergan: startap sotib olingach, uning patentlash faolligi pasayadi (2-rasm).



2-rasm: Startap sotib olingandan so'ng patent faolligining o'zgarishi (%) [7]

Yirik kompaniyalar raqobatni yo'qotish maqsadida innovatsion startaplarni sotib olib, ularning faoliyatini to'xtatib qo'yishi bilan bog'liq "Killer Acquisitions" (qotil xaridlar) muammosi kuzatilmoqda. Ushbu holatni tartibga solish uchun korporatsiyalarga beriladigan soliq imtiyozlarini texnologiyalarni bozorga chiqarish sharti bilan



bog'lash (conditional tax benefits) zarur. Bu yondashuv soliq tizimini innovatsiyalarni himoya qiluvchi samarali vositaga aylantiradi.

Shu bilan birga, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahlillari qishloq hududlaridagi startaplar uchun xos bo'lgan "yashovchanlik paradoksi"ni aniqlagan. Unga ko'ra, qishloqdagi tadbirkorlik subyektlarining bozorda omon qolish va faoliyat ko'rsatish davomiyligi shahar markazlaridagiga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir.


OECD tadqiqotchilari R. Barrela, M. Marshalian, S. Sasso va W. Vermeulen [8] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Portugaliya misolida qishloq va shahar tadbirkorligining 13 yillik (2010–2023-yillar) rivojlanish dinamikasi qiyosiy tahlil qilingan (3-jadval).

3-jadval. Qishloq va shahar startaplarining qiyosiy samaradorlik ko'rsatkichlari [8]

| Ko'rsatkichlar | Qishloq hududlari | Shahar (Urban) | Farq (%) / Holat |
|--|-------------------|----------------|----------------------|
| Startap ochish koeffitsiyenti (10k ishchiga) | 184 | 196 | -6% (past) |
| 5 yillik yashovchanlik darajasi | 55% | 43% | +12% (yuqori) |
| Ish o'rinlari yaratish (5-yilga kelib) | -12% | Baza | Past samaradorlik |
| Ish haqi darajasi | -7% | Baza | Past mahsuldorlik |
| Sotuvlar hajmi | -12% | Baza | Cheklangan bozor |

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq hududlaridagi startaplar shaharnikiga qaraganda o'ziga xos "yashovchanlik paradoksi"ga ega, ya'ni ularning 5 yillik hayotiy sikli shahardagi ko'rsatkichdan 12 foizga yuqori (55% ga nisbatan 43%) [8]. Biroq qishloq startaplari barqaror bo'lishiga qaramasdan, ularning kengayish (scaling) va iqtisodiy samaradorlik darajasi past bo'lib, ish o'rinlari yaratish sur'ati hamda sotuvlar hajmi shahar ko'rsatkichlaridan 12 foizga kamroqdir. Bu holat periferik hududlardagi startap ekotizimida soliq mexanizmlari faqatgina korxonani saqlab qolishga emas, balki kadrlar sifatini yaxshilash va operatsion hajmni oshirishga yo'naltirilgan rag'batlarni talab etishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Qishloq startaplari "yashab qolish" (survival) bosqichida shaharga nisbatan ustun, lekin "kengayish" (scaling) bosqichida oqsamoqda. Demak, soliq imtiyozlari faqat korxonani saqlab qolishga emas, balki uni kengaytirishga ham yo'naltirilishi zarur (3-rasm).



3-rasm: Startap ochish ehtimoli: Shahar va qishloq (13 yillik jamlanma) [8]

Manba: OECD (2026) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

*Izoh: Agar qishloq hududlarida aholining ta'lim darajasi va yosh tarkibi shahar bilan tenglashsa, startap faolligi shaharnikidan 31 foizga yuqori bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Rasmda qishloq hududlarida startap faolligi (184) hozircha shahardan (196) past bo'lsa-da, bu hududlarning yashirin potentsiali juda yuqori. Ayniqsa, demografik va ta'lim omillari inobatga olinganda, qishloq tadbirkorligi 257 birlik ko'rsatkich bilan shahardan sezilarli darajada o'zib ketishi mumkin.



Ushbu natija soliq mexanizmlari orqali aynan qishloq hududlariga yuqori malakali kadrlarni jalb qilishni (masalan, mutaxassislar maoshi uchun ijtimoiy soliq imtiyozi) rag'batlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'zbekistonda IT-Park rezidentlari uchun joriy etilgan 7,5% JSHODS va pasaytirilgan ijtimoiy soliq rejimi Portugaliya modeli kabi startaplarni "o'lim vodiysi" dan chiqarishga xizmat qilmoqda [2]. So'nggi dinamika shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlari korxonalariga o'z mablag'larini "ichki venchur kapitali" sifatida ishlatish imkonini berdi. Xususan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, eksport hajmi rekord darajadagi 1 milliard dollardan oshib (2023-yildagi 344 mln. AQSh dollariga nisbatan 3 baravar o'sish), xizmatlar tarkibida texnologik eksport ulushi keskin yuksaldi [2], [3]. Bu ko'rsatkichlar soliq mexanizmlari nafaqat korxonalar barqarorligini, balki ularning xalqaro bozorlarda venchur jozibadorligini oshiruvchi asosiy drayver ekanligini isbotlaydi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq startaplari barqaror yashab qolish salohiyatiga ega bo'lsa-da, ularning aksariyati kichik hajmda qotib qolish (survival without growth) muammosiga duch kelmoqda. Ushbu "kichik bo'lib qolish" qopqonidan chiqish hamda O'zbekistonning IT-Park rezidentlari uchun joriy etilgan imtiyozlar samaradorligini oshirish uchun soliq mexanizmlarini shunchaki rezidentlik maqomi uchun emas, balki aniq o'sish ko'rsatkichlariga bog'langan ("Scaling-up") holda takomillashtirish strategik ahamiyatga ega. Xususan, agar hududiy startap yillik ish o'rinlarini kamida 20 foizga ko'paytira yoki eksport hajmini oshirsa, unga to'langan soliqlarning bir qismini ilmiy-tadqiqot ishlariga (R&D) qaytarish imkonini beruvchi "Soliq keshbeki" tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Markazdan uzoq hududlarda malakali kadrlar yetishmasligi startaplarni rivojiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoni tizimli hal etish uchun qishloq startaplariga ilmiy darajali yoki yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilganlik uchun 150–200 foizlik super-deduksiya imtiyozini qo'llash lozim. Bu chora intellektual salohiyatni hududlarga yo'naltirib, innovatsiyalarning ilmiy sig'imini oshirishga va mahalliy loyihalarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, innovatsion ekotizimni yirik monopol kompaniyalarning raqobatni yo'qotishga qaratilgan harakatlaridan, ya'ni patentlash faolligini 60 foizgacha pasaytiradigan "qotil xaridlar" dan himoya qilish zarur. Agar yirik kompaniya startapni sotib olgandan so'ng ikki yil davomida uning innovatsion yo'nalishini davom ettirmasa, bitim uchun qo'llanilgan barcha soliq imtiyozlarini bekor qilish va qo'shimcha ravishda "Innovatsion passivlik jarimasi" ni qo'llash lozim. Bunday choralar startaplarning intellektual mulkini korporativ "qabristonlar" ga aylanishidan asraydi va iqtisodiyotda texnologik uzviylikni ta'minlagan holda, "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan yuksak marralarga erishishda fiskal drayver vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2020). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi (2023). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF–158-son Farmoni. <http://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. Abduraxmanova G. Q. (2024). Raqamli iqtisodiyotda startaplarni va venchur moliyalashtirishning institutsional asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (2), 10–18.
4. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Brothers.
5. Howell, S. T. (2017). Financing innovation: Evidence from R&D grants. American Economic Review, 107(4), 1136–1164.
6. Dechezleprêtre, A., & Kelly, P. (2025). Venture capital, innovation and business success in cleantech startups. OECD STI Working Papers, (13), 1–12.
7. Berger, M., et al. (2025). Acquisitions and their effect on start-up innovation. OECD STI Working Papers, (10), 15–25.
8. Barrela, R., et al. (2026). Explaining rural start-up firms and entrepreneurship in Portugal. OECD Regional Development Papers, (1), 19–23.
9. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2024). Global Innovation Index 2024. Geneva: WIPO.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>